

## XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2023 yilning yanvar-iyun oylari holatiga)

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.** 2023 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 647,6 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.


2023 yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 4 900,3 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 134,3 foiz), Qo‘ng‘irot tumanida 4201,4 ming so‘m (115,2 foiz) va Taxiatoş tumanida 3 997,4 ming so‘m (109,6 foiz) ni tashkil etgan.

### Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad

(2023 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda  
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Respublika bo‘yicha jami</b>	<b>160 853</b>	<b>3 520,3</b>	<b>3 647,6</b>
shu jumladan:			
Sanoat	13 486	387,5	4 789,0
Qurilish	1 775	40,1	3 769,7
Savdo	743	16,3	3 645,2
Tashish va saqlash	9 172	269,6	4 899,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	69	1,6	3 796,7
Axborot va aloqa	1 126	40,9	6 049,0
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 813	177,2	10 497,5
Ta‘lim	78 376	1 348,1	2 866,8
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 524	504,4	3 169,2
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 861	48,9	2 848,4
Boshqa faoliyat turlari	23 908	621,9	4 335,4


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



2023 - yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish darajasi 140,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasi 175,1 %, tashish va saqlash sohasida 121,7 %, sanoat sohasi 109,7 %, qurilish sohasida 152,1 %, savdo sohasida 135,5 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 124,4 % hamda ta‘lim sohasida 118,5 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

### Sanoat sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



**O‘rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

## Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**24 772,1**

*Tog‘-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash*



**4 969,6**

*Ishlab chiqarish sanoati*



**2 079,3**

*Suv bilan ta‘minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni yig‘ish va  
utilizatsiya qilish*




**5 340,6**

*Elektr, gaz, bug‘  
bilan ta‘minlash va  
havoni konditsiyalash*


Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (24 772,1 ming so‘m), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (5 340,6 ming so‘m) hamda ishlab chiqarish sanoati (4 969,6 ming so‘m)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida



● ming so‘m  
● o‘rta o‘rinda (%)


### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (8 922,6 ming so‘m), Nukus (6041,3 ming so‘m) hamda Qo‘ng‘irot tumanlarida (4 987,1 ming so‘m) kuzatildi.

### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

### Qurilish sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




### Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘irot tumani (4299,2 ming so‘m), Taxiatoş tumani (3910,9 ming so‘m) hamda To‘rtko‘l tumani (3399,6 ming so‘m)da qayd etildi.

### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



## Savdo sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



## Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



**2 441,3**

*Oziq-ovqat mahsulotlari,  
jumladan, ichimliklar va  
tamaki mahsulotlari  
ulgurji savdosi*



**3 960,2**

*Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
ulgurji savdo*



**8 516,7**

*Avtomobil va  
mototsikllarning ulgurji va  
chakana savdosi va ularni  
ta‘mirlash*




**1 335,9**


*Avtomobil va  
mototsikllarning  
savdosidan tashqari  
chakana savdo*

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash (8 516,7 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo (1 335,9 ming so‘m)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida




### O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



Savdo sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Taxiatosh tumanida (4 129,1 ming so‘m) qayd etilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Ellikqal‘a tumanida (930,3 ming so‘m) kuzatildi.

### Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik ish haqi



## Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi



**5 304,4** ming so'm

Ombor xo'jaligi va yordamchi  
transport faoliyati



**5 057,9** ming so'm

Quruqlikdagi va quvur  
transporti




**1 917,1** ming so'm

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyatida (5 304,4 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyati (1 917,1 ming so'm)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida




### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qo'ng'iro't tumani (5912,5 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Nukus shahrida (141,8%), Qo'ng'iro't tumanida (130,6 %) hamda Ellikqal'a tumanida (124,5 %) qayd etildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

### Axborot va aloqa sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




### Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi



Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi aloqa sohasi (7 350,0 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa noshirlik faoliyati (2 106,5 ming so‘m)da kuzatildi.




## Hududlar kesimida




■ mu'nom    ● o'sim p'ati

## O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (6165,2 ming so'm) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Nukus shahri (175,5 %), Chimboy (144,4 %), Taxtako'pir va Mo'ynoq tumanlarida (138,1 %) qayd etildi.

## Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi



**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi**



**5 382,2** ming so‘m

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyati



**10 711,3** ming so‘m

Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar




**3 916,3** ming so‘m


Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar (10 711,3 ming so‘m)da eng past ko‘rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyati (3 916,3 ming so‘m)da kuzatildi.

**Hududlar kesimida**



**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,**  
ming so‘m




Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (12 284,3 ming so‘m) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur‘ati Ellikqal‘a tumani (187,7 %), Qonliko‘l tumani (163,8 %) hamda Taxtako‘pir tumanida (161,4 %) qayd etildi.

● ming so‘m    ● o‘sish sur‘ati

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

## Ta‘lim sohasida o‘rtacha oylik ish haqi




## Ta‘lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi




Ta‘lim sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi oliy ta‘lim (5 870,9 ming so‘m)da, eng past ko‘rsatkich esa maktabgacha ta‘lim (1 618,0 ming so‘m)da kuzatildi.


**Ta’lim sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi**



**Hududlar kesimida**




**O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m**




Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahri (4015,6 ming so‘m), Xo‘jayli tumani (2984,1 ming so‘m), Kegeyli tumani (2870,9 ming so‘m) hamda Ellikqal‘a tumanlari (2827,8 ming so‘m)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur‘ati Nukus shahrida (124,8 %), Qorao‘zak (121,1 %), Qo‘ng‘irot (120,7 %), Nukus (120,5 %) hamda Taxiatosh tumanlarida (120,1 %) qayd etildi.

■ ming so‘m      ■ o‘sish sur‘ati

## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha oylik ish haqi




### Hududlar kesimida



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyati turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Chimboy tumani (3793,8 ming so'm), Qonliko'l tumani (3716,2 ming so'm), Nukus shahri (3423,6 ming so'm) hamda Xo'jayli tumani (3408,5 ming so'm)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati To'rtko'l tumani (142,2 %), Bo'zatov (138,7 %) hamda Qo'ng'iro't tumanlarida (137,6 %) qayd etildi.

### O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



■ ming so'm    ● o'sish sur'ati